

IQBOLLI BOTIR (Qoraqalpoq xalq ertagi)

Qadim zamonda Abulzamon ismli kishi yashagan bo‘lib, u ellik yoshgacha farzand quvonchini ham tatimagan ekan. Kunlarning birida xotini ikkovi o‘zlarining och-yalang‘och va farzandsiz o‘tib borayotgan umrlariga xafa bo‘lishib, tuni bilan uxlayolmay xayolga botibdilar. Tongotarda ko‘zlari ilinibdi. Abulzamon tush ko‘ribdi. Tushida bir oppoq soqolli bobo: «Ey g‘arib inson, sen befarzandlikdan siqilib, aziyat chekib yashamoqdasan. Men senga bitta o‘zi mingga arziguli bir bahodir o‘g‘lon baxsh etadurman», — deb duo o‘qibdi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Abulzamon uyg‘onsa — tushi ekan. Quvonib o‘rnidan tursa, o‘zini xuddi yigirma besh yashar yigitday his qila boshlabdi va tushida ko‘rganlarini xotiniga bir-bir aytib beribdi. Ikkovlari bu tushni yaxshilikka ta‘birlashib, vaqtlari xush bo‘lib yashayveribdilar. Payti yetib, xotining qornida homila paydo bo‘libdi va to‘qqiz oy-u to‘qqiz kun deganda arslonday o‘g‘lon tug‘ibdi. Qarindosh-qo‘shnilar yig‘ilishib, go‘dakning nomini yaxshi niyatlar bilan Iqbolli deb qo‘yishibdi.

Iqbolli o‘n sakkiz yoshida norday kuchga to‘lib, to‘y-ma‘rakada to‘rdan o‘rin beriladigan obro‘li-atoqli yigit bo‘lib yetishibdi. Bu paytg kelib, Abulzamonning ham uyi-bog‘i kengayib, turmushi farovonlashib qolgan ekan. Shunday kunlarning birida Iqbolli o‘zi sevgan qizga uylanib, farzand ko‘rib, ismini Hojibek deb qo‘yibdi. O‘g‘lining yoshi to‘rtga to‘libdi. Bir kuni Iqbolli botir otasining oldiga borib:

— Ota, men qirq yigitim bilan shikorga chiqib, quyon-kiyik ovlab kelsam, nima deysiz? — debdi.

Shunda otasi Abulzamon:

- Bolam, men senga bir nasihat aytay, agar shunga rozi bo‘lib, nasihatimga kirsang ruxsat beraman, - debdi. - Huv anovi tog‘ning o‘ng tomonida ov qilgin-u, biroq tog‘ning chap tomoniga o‘tma. Agar pandimni olmasang, bizlar bilan qayta diydor ko‘rishmaysan.

Shunday deb, Abulzamon Iqbolli botirga ruxsat berib yuboribdi. Iqbolli botir qirq yigitini ergashtirib, oziq-ovqatini g‘amlab, ota-onasi va xotin-bolasi bilan xayrlashib jo‘nab ketibdi. Bir oy deganda tog‘ etaklariga yetib boribdi. Yigitlari bilan chodir qurib, ov ovlab yuraveribdi. Oradan necha oylar o‘tib ketibdi.

Bir kuni Iqbolli botir xayol surib: «Tavba! Otam menga tog‘ning chap tomoniga o‘tma, o‘tsang — sen bilan bizlar qayta diydor ko‘risholmaymiz, degan edi. Nima sababdan bunday xavotirga tushgan ekan? Tog‘ning chap tomonida yov bormikan yoki dev bormikan? Kim yashasa ham rosa qiziqtiradigan gap-ku bu! Nima bo‘lsa ham, men tog‘ning o‘sha tarafiga o‘tib ko‘rayin. Dev bo‘lsa olishayin, yov bo‘lsa solishayin - shunday qilib xumorimni tarqatayin!» — deb, qirq yigitiga o‘zining maqsadini bildiribdi. Yigitlar Iqbolli botirga otasining nasihatlarini eslatibdilar, lekin botir ularga quloq solmabdi. Shunday qilib Iqbolli botir qirq yigitini iziga solib, tog‘ning chap tomoniga qarab ot qo‘yibdi. Terlab- chanqab, horib-charchab tog‘ning chap tarafidagi chorboqqa yetib kelibdilar. Qarasalar — olma-yu anjir, o‘rik-shaftolilar qulf urib o‘sib yotgan, soya-salqinga boy bir g‘aroyib bog‘ emish. Iqbolli botir yigitlari bilan bir gujumning ostiga to‘shak to‘shab, qozon osib, hafta-o‘n kun shu go‘shada dam olibdi. Bir kuni Iqbolli botir yigitlarga:

- Do‘stlarim, bu yerga kelishdan mening maqsadim yayrab dam olish emas, balki bu makonda bizlar uchun qanday xavf-xatarning bor-yo‘qligini bilish edi. Mana, kelganimizdan beri odam qo‘rqulik hech narsani uchratmadik. Lekin bu bog‘ni ko‘zko‘rsinga soya-salqinli, farovon manzil qilib qo‘ymagandirlar, buning bir siri bo‘lsa kerak. Sizlar ham yotib-ag‘anab, maza qilib hordiq oldinglar, tiniqdinglar. Endi bog‘ atrofini aylanib, biron-bir iz-nishon izlaylik, — debdi-da, yigitlarni tashqariga boshlabdi. Qancha yo‘l yurmasinlar, na uchayotgan qush, na chopib ketayotgan kiyik uchrabdi. Bir

payt ular bog' chetidagi maydonda bir buta ostida yotgan quyonga duch kelibdilar. Shunda Iqbolli botir quyonga qarab:

*Ey quyon, qo'rqoq quyon,
Alanglab uyon-buyon,
Yotibsanmi uxlo olmay,
Qo'l-oyog'ing chalajon.
Boqqa keldi bir zo'r er,
Xuddi arslon, xuddi sher,
Hech kirn xabar olmadi,
«Kimsizlar?» — deb kelmadi.
Til-zaboning bor bo'lsa,
So'zlashga tayyor bo'lsa,
Savolimga javob ber,
Bu bog' kimniki, gapir! — debdi.*

Shu payt quyon o'rnidan sakrab turib bir silkingan ekan, kallasi oltindan, quyrug'i kumushdan bo'lgan kiyikchaga aylanibdi. Iqbolli botir farosatli ekan, yigitlariga qarab:

— Qirq yigit aylanib o'tib kiyikni o'rab olinglar, kimning yonidan o'tib qochsa, unga o'lim jazosini beraman! — deb g'azab qilibdi. Kiyik bolasi o'rtada ko'zlari marjonday yaltirab turaveribdi. Iqbolli botir qirq yigiti bilan qo'l ushlashib doira tutib kiyikchaga yaqinlasha boshlagan ekan, kiyikcha bir sakrab Iqbolli botirning boshi ustidan oshib o'tibdi. Botir lol-u hayron bo'lib ortga o'girilsa, kiyikcha qochmay turgan ekan. Bir silkinibdi-yu, mislsiz go'zal bir qizga aylanibdi. Yigitlar bu qizning parizod ekanini anglabdilar. Shu payt parizod qiz Iqbolli botirga qarab:

- Ey yigit, siz borib turgan manman-u takabbur ekansiz. Agar mana shu xudbinligingiz bo'lmaganda edi, men sizniki edim. Endi siz mening diydorimga yetmoq istasangiz, oshiqlik yo'liga kirib, olti oy sarson-sargardonlikda kezasiz, dunyo aylanasis. Kunbotar tomondagi eng ulkan chinor ostida siz bilan uchrashamiz, — debdi-da, bir silkinib, kaptarga aylanib uchib ketibdi.

Ana endi Iqbolli botir yigitlariga ruxsat bera turib:

- Do'stlarim, sizlar yurtimizga qaytib ketaveringlar. Men ishq-muhabbat yo'liga kirib, o'sha pari qizning vasliga yetishmoq niyatidaman. Ota-onamga mening uzr-u salomlarimni topshirarsizlar. Omad kulib, safarim o'ng bo'lsa — parizodni olib o'n ikki oy deganda qaytib kelarman. Agar aytgan vaqtda yetib kelolmasam, menga bir baloning yo'liqqani. Mana bu xanjarni Hojibek o'g'limga beringlar, mendan nishona sifatida asrasin, — deb yigitlar bilan xayrlashibdi.

Iqbolli botir azob-uqubatlarda ichida olti oy yo'l yuribdi. Nihoyat, u pari qiz aytgan chinor ostiga yetib kelibdi. Jazirama quyoshda, sarson-sargardon bo'lib holdan toygan Iqbolli botir yaxshilab razm solsa, behad ulkan, tarvaqaylab o'sib ketganchinorning bir kovagida o'sha parizod qiz ming jilva-yu noz bilan nur taratib, kashta tikib o'tirgan emish. Botirning ko'ksida ishq o'ti chandon avj olib, dardi ziyoda bo'lib, oh tortib qizga shu so'zlarni aytibdi:

*Gurs-gurs urar yuraging,
Bilqillar oq bilaging,
Ustingda chipor ko'ylaging,
Uzun bo'yli, xipcha bel,
Ayon etgin tilaging.
O'zim boraymi yoningga,
Kelasanmi yo yonimga?!
Nor bilagimni bo'yningga*

*Solayinmi yo, qizgina?
Oq bilagingni bo'ynimga
Solasanmi yo, qizgina?
Seni izladim olti oy,
Hamrohim bo'ldi zor-u voy.
Qanday yo'llarga yurmadim,
Senday parini ko'rmadim.
Tishlari marjon, xipcha bel,
O'rningdan turib o'zing kel.
Va'dangdan topil, parizod,
Meni dardlardan qil ozod,
Yurib kel asta qoshima,
O'zing toj bo'lgin boshima...*

Shu payt pariqiz kulib:

— Ey odamzod, manmanlik hali ham seni tark etmabdi-ku. Endi o'zingdan ko'r, chekkan shuncha sarson-sargardonliklaring sening ko'nglingga kamtarlik, faqirlik tuyg'ularini sololmabdi. Seni yana sinab ko'rayin, endi men sakkiz oylik yo'lga uchib ketaman. Menga oshiqliğing chin bo'lsa, yana kunbotar tomonga yo'l tortasan. Darband tog'iga yetgan manzilda Gulzor deb ataluvchi bir bog' bor, meni o'sha bog'dan topasan, — deb bir silkinibdi-da, kaptarga aylanib uchib ketibdi. Iqbolli botir o'ylanib: «Endi ortga qaytib ketsam, botir degan nomimga dog' tushar, suyagim tuproqqa aylanguncha seni izlayveraman, oshiqlik azobi qismatimizda bor ekan», — deb kunbotar tomonga qarab yo'lga tushibdi.

Endi gapni parizod qizdan tinglang. Bu qizni parilar Iqlimoy pari deb atasharkan. Iqlimoy pari Gulzor bog'ida manzil tutgan pariqushlar ichida eng go'zali, eng jilvakori, eng sehgari hisoblanarkan. Gulzor bog'ining narigi tomonida devlar bir qal'a qurgan bo'lib, ana shu qal'ada yashovchi Erqush dev Iqlimoy pariga oshiq ekan. Erqush dev Iqlimoy parini aldab ushlab olibdi-da, devlar qal'asida bir uyga yashirib qo'yibdi. Sakkiz oylik yo'lni ne xavf-u xatarlar bilan bosib yetib kelgan Iqbolli botir Gulzor bog'ini qancha aylanib kezmasin, Iqlimoy paridan darak topmabdi. Horibcharchagan botir yonboshlaganicha qattiq uyquga ketibdi. Hamma pahlavonlar singari Iqbolli botirning ham uyqusi bir necha kunlab davom etibdi. Ana shunday kunlarning birida, odamzod hidini olib kelgan Erqush dev Gulzorda uni ushlab olibdi-da, qo'l-oyog'ini bog'lab qal'aga olib ketibdi va uni ham temir panjarali zindonga tashlab, uyg'onishini kutib yuraveribdi.

Kunlarning birida Iqbolli botir bir aksa urib uyg'onib ketibdi. Qarasa, temir panjarali zindonda bandilikda yotibdi. «Barakalla, botir, «uyqu bilan o'lim barobar» deganlari nega sening yodingdan ko'tarildi? Mana endi jazongni tortasan! Seni kim qo'lga tushirgan bo'lsa, osonlikcha qo'yib yubormas», - deb afsuslanib yotaveribdi. Yotavergandan foyda yo'qligini anglab yetgach, Iqbolli botir ota-bobolarining ruhlarini madadga chorlab, yotgan joyida bir zo'r bergan ekan, qo'l-oyog'idagi arqon uzilib ketibdi. Zindon eshigini ham bir tepib ochib chiqib, qorovullik qilayotgan devni cho'qmor bilan urib o'ldiribdi. Qal'a maydonida devlar o'zaro: «Temir zindondagi odamzod to'qqiz kundan beri uxlab-tiniqib yotibdi, uyg'onsa uning boshini chopib, qonini oqizib, go'shtlarini bo'lishib yeymiz», deb maslahat qilayotgan ekanlar. Ularning boshchisi Erqush dev yosh devlarning biriga: «Bor, odamzoddan xabar olib kel, soqchidan so'ra, uyg'onmadimikan?» — deb buyruq berayotganini eshitgan Iqbolli botir darhol g'izillab iziga qaytibdi-da, cho'qmorni olib zindonga kirib, eshikni yopibdi. Xabar olishga kelgan yosh dev soqchi

o'rtog'ining o'lib yotganini ko'rib, endi qichqirib boshqalarni ogohlantiraman deb turganida Iqbolli botir zindondan chiqib, uni ham cho'qmor bilan urib o'ldiribdi. Shunday qilib u qirqta devni ham birin-ketin urib o'ldiraveribdi. Eng oxirida yetib kelgan Erqush dev o'lib yotgan birodarlarini ko'ribdi-da, odam bolasining qandaydir bir sehrli kuchlardan madad olganini sezib, o'zining bilgan barcha sehrli duolarini o'qibdi va Iqbolli botirni sehrlab tashlabdi. Endi botir o'z inon-ixtiyorini butkul yo'qotib, Erqush dev nima qil desa shuni bajaradigan qulga aylanibdi. Shunday qilib Iqbolli botirni o'z izmiga bo'ysuntirgan Erqush dev uni devlar qal'asining oldidagi darvoza, anhor, ko'l va yo'llarga qorovul qilib qo'yibdi. Norday kuchga to'lgan Iqbolli botir erta-yu kech qo'lga cho'qmor tutib, uchayotgan qush-u, o'rmlayotgan ildgacha qal'aga yaqinlashtirmasdan o'ldirib, qal'aga tirik jonni yo'latmay aylanib yuraveribdi. Endigi gapni Hojibek botirdan eshiting.

Hojibek botir o'sib-ulg'ayib sherbilakli yigitga aylanibdi. Bir kuni bobosi Abulzamondan o'z otasi haqda so'rab-surishtirib, bor haqiqatning hammasini bilib olibdi. Otasini oxirgi marta ko'rgan qirq yigitdan kunbotar tomondagi chinor yo'lini so'rab olibdi. Hojibek botir otasini izlab topish, tirik bo'lsa vataniga qaytarib keltirish uchun bobosidan, buvisidan va onasidan ruxsat so'rabdi. Ular zor-zor yig'lab yosh botirni bu xatarli yo'ldan qaytarishga urinibdilar, biroq Hojibek ahddidan qaytmabdi. Yaxshilab yo'l hozirligini ko'rib, bir kuni tong bo'zarayotgan paytda kunbotar tomonga ravona bo'libdi. Necha oylar yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib otasining Iqlimoy pari bilan uchrashgan joyiga yetib kelibdi. Chinor ostida yotib uyquga ketibdi. Tushida bir oppoq soqolli bobo paydo bo'lib: «Ey o'g'lon! Abulzamon bobong sening otang Iqbolli botirni xudoydan tilab olgan edi, ul farzandning dunyoga kelishida men vositachi bo'lgan edim. Sening padaring ishq balosiga yo'liqib, Iqlimoy parini izlab bosh olib ketdi. Hozir u Darband tog'i atrofidagi devlar qal'asini qo'riqlaydi. Inon-ixtiyori o'zida emas, uni Erqush degan bir zo'ravon dev sehrlab qul qilgan. Otang inson tugul qumursqani ham qal'aga o'tkazmaydi. Otangni yovuz devlar qo'lidan qutqarmoqchi bo'lsang, kunbotar tomonga qarab yana sakkiz oy yo'l yurasan. Darband tog'i etagida Gulzor bog'i bor, undan naryog'ida Devlar qal'asi. Qolgan gaplarni Gulzor qal'asiga yetib borganingda aytaman», debdi. Hojibek botir uyg'onsa - tushi emish. Boboning maslahatiga amal qilgan Hojibek botir «Yo nasib!» deb kunbotar yoqqa qarab ot qo'yibdi. Sakkiz oy tinimsiz yo'l yurib, charchab-horib Darband tog'ining etaklariga yetib kelibdi. Hojibek botir parilar makoni Gulzorboqqa qo'nib, dam olib yotganida uyquga ketibdi. Tushida yana o'sha oppoq soqolli nuroniy chol paydo bo'lib: «Bolam, sen nihoyat endi otang qul bo'lib devlarning xizmatini qilib yurgan makonga kelding.

Bu bog'ning narigi tomoni cheksiz maydon, maydondan na uchar qush, na chopqir qulon o'ta oladi. Otang Iqbolli devlarning sehriga chalib, ko'zi tushgan tirik jonni qo'ymay o'ldirib yuribdi. U seni ham so'zsiz o'ldiradi. Men senga bir sirni aytib beray. Otangni devlar changalidan qutqazishning yagona yo'li bunday: ayni choshgoh mahali otang osmonga qarab yotib biroz dam oladi. Men sening tulporingga qanot baxsh etayin, uni uchirasan. Tulpor osmonda qanot yozib parvoz qilar, Iqbolli uni ko'rib cho'qmorini otadi, tulporing bu cho'qmorga chap berib, yana osmoni falakda parvoz qilib yuraverar, otang uni o'ldirmoqchi bo'lib qayta-qayta cho'qmor otar, bu paytda sen sekin o'rmlab borib otangga yaqinlashasan. Otangning yaqiniga borganda darhol qo'lingga huv bir paytlar otang nishona uchun senga qoldirgan qushko'zlikni olib, duo o'qib, ko'zyoshlaring bilan yuvib, otangning oldiga qo'yarsan. Ana shunda otangning aqli o'ziga qaytib keladi va devlarning sehridan ozod bo'ladi. Qolganini o'zlaring hal qilarsizlar», deb ko'zdan g'oyib bo'libdi. Hojibek uyg'onsa - tushi ekan. Darhol o'rnidan turib, tulporini osmonga uchiribdi. O'zi esa bog'dan o'tib, maydondan emaklab, otasi tomon yaqinlashib boraveribdi.

Qal'a atrofini aylanib charchagan Iqbolli ayni choshgoh mahali dam olib yotsa, osmoni falakda parvoz qilib kelayotgan qanotli otga ko'zi tushibdi. Cho'qmorini otgan

ekan, tegmabdi. Yana otibdi, tulpor yana chap berib, qal'a tomonga parvoz qilaveribdi. Darg'azab Iqbolli cho'qmor bilan tulporni endi albatta urib tushiraman deb tayyorlanayotgan paytda uning oldida xuddi o'ziday pahlavon bir yigit paydo bo'libdi-da, nimalarnidir pichirlab, qo'lidagi qushko'zlikni o'pib, uning oldiga qo'yibdi. Qushko'zlikni ko'rib Iqbolli botirning ko'zlaridan duv-duv yosh oqibdi. Birozdan keyin yig'lab-yig'lab o'ziga kelgan botir oldida ta'zim qilib turgan pahlavon yigitdan:

- Sen kimsan? Do'stmisan yoki dushmanmisan? Bu qushko'zlik sening qo'lingga qanday qilib tushib qoldi, o'zingni tanit! — debdi.

- Siz ketganingizda to'rt yoshida izingizda yig'lab qolgan Hojibek bo'laman! — deb, yigit otasining quchog'iga o'zini otibdi. Necha yillar-u, qancha-qancha azob-uqubatlar, qullik va xorliklardan keyin qayta topishgan ota-bola ana shu taxlit uchrashibdilar. Iqbolli:

- Izimni bosgan toychog'im, o'zimni topgan polvonim. Sen yetib kelmaganingda men bu devlarning qo'lida xor-zorlikda o'lib ketardim, seni yetkazgan bobolarimning ruhlaridan aylanay! — deb o'g'lining yuz-ko'zlaridan o'pibdi, — O'g'lim, sen endi bu yerda yurma, hademay devlar qal'adan chiqib, tevarak-atrofdagi shaharlar ustiga bosqinga jo'naydilar. Sen Gulzorboqqa kirib yashirinib kuzatib o'tir. Men qal'adagi zindondan Iqlimoy parini qutqarib kelay. Omad yor bo'lsa, devlarning qo'lidin qutulib ketarmiz, — debdi.

Ana endi gapni devlarboshi Erqushdan tinglang.

Erqush dev bir kuni uyg'onib: «Iqlimoy parini kaptar qiyofasiga kiritsam, o'zim qironqush bo'lib saroy ichida o'ynab-uchib, yayrab-qo'nib kaptar bilan aysh-u ishrat qilsam...» — degan xayol bilan parizod qizni qamab qo'ygan uyga kelsa, uy oldidagi soqchi dev o'lib yotibdi. Iqlimoyning o'zi esa kim bilandir qochib ketibdi. Erqush dev, qal'ada bu ishni qiladigan bitta odam - Iqbolli qul, endi ularni ushlab olib jazolarini beray deb, qironqushga aylanib, osmoni falakdan turib nazar solsa, qal'adan chiqib qochib ketayotgan Iqbolli va Iqlimoylarni ko'ribdi. Ularning izidan yetib, bir silkinib dev holiga kiribdi-da, yo'lni to'sibdi. U allaqachon Iqbollida yuz bergan o'zgarishni, endi unga sira sehr o'tkazib bo'lmasligini sezgan ekan. Shuning uchun bor kuchini, ayyorligini ishga solib, botirni o'ldirmoqchi bo'libdi. Iqbolli botir dev bilan hozir bo'ladigan kurash eng oxirgi, hal qiluvchi kurash ekanini tushunganligidan darhol Iqlimoy paridan kaptarga aylanishni, Gulzorbog'da yotgan Hojibek bilan birga tulporga minib qochishni, omon-eson yetib borsalar birga turmush qurishlarini iltimos qilibdi-da, o'zi Erqush dev bilan kurashga shaylana boshlabdi. Iqlimoy shu zahoti qushga aylanib Gulzorboqqa qarab uchibdi. Voqeani eshitgan Hojibek botir Iqlimoy pariga qaPa tomondan osmonga povlab ko'tarilgan olovni ko'rsatib:

— Bu qanaqa olov? — deb so'rabdi.

— Dev qahrlanib kurashga kirganda og'zidan ana shunday yashil olov sochadi, — deb javob beribdi qiz.

- Yashil olov mening tulporimning og'zidan ham chiqadi, demak tulporimni devga qarshi jangga solmasak, biz odamlar uni yenga olmay bekorga o'lib ketarmiz. Otam bechorani qutqarib olib ketmasam, men qandoq qilib botir degan nomni ko'tarib yura olaman! — deb Hojibek botir sakrab tulporiga minibdi-da, jang maydoniga parvoz qilibdi. Yetib borsa, Erqush dev Iqbolli botirni bosib, endi o'ldirish uchun shaylanayotgan ekan. Osmoni falaklardan uchib kelgan tulpor devni bir tishlab olib yana ko'kka ko'tarilibdi. Osmonda uning oyoq-qo'llarini iishlab sindirib, gavdasini pastga otibdi. Yerga tushgan dev parcha-parcha bo'lib ketibdi. Shunday qilib ota va bola Iqlimoy parini ergashtirib, devlar makonidan omon-eson chiqib, o'z yurtlariga yetib olibdilar.

Iqbolli botir vataniga yetib kelganidan shodlanib to'y-tomoshalar beribdi va o'g'li Hojibekka:

- Bolam, sen meni borib qutqarmaganingda men ham, Iqlimoy pari ham devlarning qo‘lida o‘lib ketardik. «Yugurganniki emas, buyurganniki», degan gap bor. Bu parizod qiz senga nasib qilsin. Suyagim yot o‘lkalarda qolib ketmagani uchun esa senday farzandni yetkazgan ota-bobolarimning ruhlariga ming rahmat! — debdi. U barcha qarindosh-urug‘larini, do‘st-yorlarini chorlab Iqlimoyni Hojibekka nikohlab beribdi. Ular shod-xurramlikda umr kechiribdilar.

“Bir qalpoq oltin” kitobidan